TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI



- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi

№9-SON


2026-yil, sentabr

tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz

https://t.me/tibbbiyot_2100


Litsenziya raqami: №745444













Tahrir hay’ati a’zolari:



BOSH MUHARRIR:
Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

Tahrir hay’ati a’zolari:



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna
Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

Aripkhodjaeva Shakhzoda
resident doctor in national medical center

"TIBBIYOT TA’LIMI VA INNOVATSIYALARI"
ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2024-yil 9-oktabrdan boshlab c-5669651 raqami ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm

MUNDARIJA

TRIAMSINOLON PREPARATI YORDAMIDA YUZ VA BO‘YIN SOHASIDA JOYLASHGAN YANGI VA ESKI KELOID CHANDIQLARNI DAVOLASH SAMARADORLIGINI TAQQOSLASH 8
Boymuradov Shuhrat Abdujalilovich, G‘aybullayev Javohir G‘afurovich

SEREBROVASKULYAR KASALLIKLARDA BUYRAK SHIKASTLANISHINING ISHEMIK-GIPOKSIK MEXANIZMLARI: HIF-1α VA TGF-β1 KO‘RSATKICHLARINING YOSHGA BOG‘LIQ O‘ZGARISHLARI 16
Abdullaev Nodirbek Uroyimjonovich, Mamajonov Iqboljon Maribjonovich

RESULTS OF THE STUDY OF CERTAIN CYTOKINES IN PATIENTS WITH THYROID CANCER 23
Sulaymanov Dilshod Abdirakhimovich, Sabirov Jakhongir Ruziyevich, Yigitaliev Alisher Bakhodirovich, Sarvar Temurovich Islomov

QALQONSIMON BEZ SARATONINING KLINIK KECHUVI XUSUSIYATLARIGA BOG‘LIQ HOLDA INTERLEYKINLAR DINAMIKASINI BAHOLASH 28
Sulaymanov Dilshod Abdiraximovich, Sabirov Jakhongir Ro‘ziyevich, Yigitaliyev Alisher Baxodirovich, Sarvar Temurovich Islomov

МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ГНОЙНО-ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ОРГАНОВ РЕПРОДУКТИВНОЙ СИСТЕМЫ ЖЕНЩИН 34
Фозилбеков Рузикул Анаркулович

DISCRIMINATIVE PERFORMANCE OF HEMATOLOGICAL PARAMETERS FOR IDENTIFYING B-THALASSEMIA CARRIERS: A SECONDARY ANALYSIS OF AN OPEN-ACCESS SCREENING DATASET 47
Alimov Farruh Shuhrat ugli

NEUROLOGICAL COMPLICATIONS ASSOCIATED WITH EPIDURAL ANESTHESIA IN OBSTETRIC PATIENTS: A CLINICAL-STATISTICAL ANALYSIS 52
Ikromova Mufazzal Abdurashidovna, Yakubova Marxamat Mirakramovna

PROSTATA BEZI SARATONI DAVOLANGANIDAN KEYIN URODINAMIK TEST NATIJALARINING TAHLILI 58
Haqqulov Erkin Bekmirzayevich, Alimov Jaloliddin Usmonxon o‘g‘li, Rahmatullayev Akmaljon Ortig‘ali o‘g‘li, Sabirov Akmaljon Alijon o‘g‘li

КОЛИЧЕСТВЕННАЯ 3D-КАТЕГОРИЗАЦИЯ ПЕРЕЛОМОВ МЫЩЕЛКОВОГО ОТРОСТКА НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ: МОРФОМЕТРИЧЕСКИ-РОТАЦИОННО-ДИСЛОКАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ ТЯЖЕСТИ И ВЫБОРУ ЛЕЧЕБНОЙ ТАКТИКИ 63
Мусаев Шамшодбек Шухратович, Шомуродов Кахрамон Эркинович, Мухиддинов Шахризод Мухиддин угли

MECHANISM-DEPENDENT KINETICS OF BONE REMODELING AND INFLAMMATORY MARKERS AFTER COMBINED MAXILLOFACIAL TRAUMA 69
Khatamov Ulugbek Altibayevich

BACHADON MIOMASINING TURLI TOPIK VARIANTLARI MAVJUD AYOLLARDA EXOGRAFIK TADQIQOT NATIJALARI 75
Muxitdinova Mexriniso Yorkibekovna, Shokirova Sadoqatxon Muxammatsoliyevna

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ ПРИ НОРМОТЕНЗИВНОЙ ГЛАУКОМЕ 81
Газизова Лилия Комиловна

КЛИНИЧЕСКИ ЗНАЧИМАЯ РЕКЛАССИФИКАЦИЯ ФЕНОТИПА ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ ПОСЛЕ КАРДИО-МРТ: ОСОБОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРИ ПОСТИНФАРКТНОМ КАРДИОСКЛЕРОЗЕ 84
Таирова Мадина

СКРЫТОЕ РУБЦОВО-ФИБРОЗНОЕ ПОРАЖЕНИЕ МИОКАРДА У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ: ДОБАВОЧНАЯ ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ КАРДИО-МРТ 89
Ходжибекова Юлдуз Маратовна

СЫВОРОТОЧНЫЕ РОСТОВЫЕ ФАКТОРЫ И ПРОВОСПАЛИТЕЛЬНЫЕ ЦИТОКИНЫ КАК МАРКЕРЫ ПРОГРЕССИРОВАНИЯ ПЛАЦЕНТАРНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН 96
Джураева Дилдора Мухитдиновна, Умирова Мухаббат Абдусатторовна

ОСНОВНЫЕ БИОХИМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРОВИ У ДЕТЕЙ 101
Сарварова Лейла Биналиевна

ДИССОЦИАЦИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ОТВЕТА И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НА ФОНЕ КАРДИОРЕАБИЛИТАЦИИ У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ, ОЖИРЕНИЕМ И МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ 105
Ташкенбаева Наргиза Фархадовна, Курбанов Равшанбек Давлетович

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СКРИНИНГА СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОГО РИСКА НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ARCUS SENILIS В ПЕРВИЧНОМ ЗВЕНЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ 112
Ганиева Мафтуна Ракибаевна

OYOQ VENOZ TROFIK YARALARINI KOMPLEKS DAVOLASHNI KLINIK-MORFOLOGIK ASOSLASH: MUAMMONING ZAMONAVIY HOLATI, HAL ETILMAGAN MASALALAR VA ISTIQBOLLARI 117
Hamroyev Xudoyshukur Nutfilloyevich

GENERALIZATSIYALASHGAN EPILEPSIYADA KLINIK, NEYROPSIXOLOGIK VA NEYROTROFIK KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA INTEGRAL BAHOLASH MODELINI ISHLAB CHIQISHGA DASTLABKI YONDASHUV 123
Fayziyeva Ra’nogul Hoji qizi, Azizova Ra’no Bahodirovna

TIZZA BO‘G‘IMINING YIRINGLI OSTEOARTRITIDA KLINIK-LABORATOR VA INSTRUMENTAL KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA INDIVIDUAL DAVOLASH TAKTIKASINI TANLASH 128
Shoimov Shomurod Eshpo‘lat o‘g‘li

MULTIDIMENSIONAL EFFECTS OF PSYCHOMOTOR REHABILITATION AFTER ISCHEMIC STROKE: A CONTROLLED STUDY OF MOTOR, FUNCTIONAL, BALANCE, AND EMOTIONAL RECOVERY 134
Maftuna Baxtiyor qizi Ibodulloyeva, Zarifboy R. Ibodullayev

КЛИНИКО-СТОМАТОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОСТОЯНИЯ ТВЁРДЫХ ТКАНЕЙ ЗУБОВ У ЛИЦ С РАЗЛИЧНЫМ УРОВНЕМ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ ЭКСПОЗИЦИИ 145
Шукурова Умида Абдурасуловна, Хатамова Шахло Алтибаевна

TISH RIVOJLANISHINING GISTOLOGIK BOSQICHLARI: ODONTOGENEZ JARAYONIDA HUJAYRAVIY DIFFERENSIALLANISH VA EPITELIAL-MEZENXIMAL O‘ZARO TA’SIRLAR 154
Saidov Quvonchbek Komil o‘g‘li, Bazarova Gulnora Rustamovna

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗРАБОТКЕ ПЕРЦЕНТИЛЬНЫХ КРИВЫХ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ: ОПЫТ РАЗНЫХ СТРАН И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА 162
Алимова Насиба Усмановна, Гилязетдинов Камиль Наильевич, Тиллаева Дилфуза Толиповна

HAVONI IFLOSLANTIRUVCHI MODDALARNING SURUNKALI TA’SIRI NATIJASIDA NASLNING NAFAS YO‘LLARI DEVORIDAGI LIMFOID TO‘QIMALARNING TUG‘RUQDAN KEYINGI RIVOJLANISHIGA TA’SIRINI IMMUNOGISTOKIMYOVIY BAHOLASH USULI 169
Azizova Feruza Xusanovna, To‘laboyev Sunnatulla Olimjon o‘g‘li, Saloydinov Azmiddin Shariddin o‘g‘li, Ergasheva Feruza Davlatmirzayevna

PROFILAKTIKA VA GIGIYENA 174
Saidov Quvonchbek Komil o‘g‘li, Bazarova Gulnora Rustamovna

“ONANING HAVONI IFLOSLANTIRUVCHI MODDALARGA SURUNKALI TA’SIRLANISHI SHAROITIDA NASL JIGARINING POSTNATAL RIVOJLANISHI VA DIFFERENSIALLANISHINING XUSUSIYATLARINI IMMUNOGISTOKIMYOVIY BAHOLASH USULI” 181
Azizova Feruza Xusanovna, Abdusalomov G‘ayrat Abdusalomovich, Mamasidikov Soatjon Sodikovich, Xasanov Qobil Xakimovich

РОЛЬ ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ РЕПРОДУКТИВНОЙ СИСТЕМЫ В СТРУКТУРЕ ПСИХОСОМАТИКИ ЖЕНЩИН 185
Фозилбеков Рузикул Анаркулович

СВЯЗЬ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РН СЛЮНЫ И СОСТОЯНИЯ ПАРОДОНТА У ПАЦИЕНТОВ С ГАСТРОЭЗОФАГЕАЛЬНОЙ РЕФЛЮКСНОЙ БОЛЕЗНЬЮ 198
Шокирова Хуринисо Абдумавлон кизи

КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТЬ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ С СОХРАНЕННОЙ ФРАКЦИЕЙ ВЫБРОСА У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНЬЮ СИСТЕМА ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ С ОСТРЫМ КОРОНАРНЫМ СИНДРОМОМ 203
Маджидова Гулбахор Толибовна, Намозов Умид Тургун угли

MIASTENIYA GRAVISDA MIKRONUTRIENTLAR VA MIKROELEMENTLAR DISREGULYATSIYASI: KLINIK DALILLAR, BIOLOGIK ASOSLAR VA TADQIQOTDAGI BO‘SHLIQLAR 210
Shukrulloyeva Nodirabegim Akbarovna

СИСТЕМА ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ С ОСТРЫМ КОРОНАРНЫМ СИНДРОМОМ 215
Маджидова Гулбахор Толибовна, Холикулова Мафтуна Маликовна

TO‘QIMACHILIK SANOATI AYOL XODIMALARIDA SURUNKALI TARQOQ PARODONTIT RIVOJLANISHINING XAVF OMILLARI VA DAVOLASH SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSLARI 226
Odinaxon Umarova Nu’monovna, Ahmedov Abdumutalib Yo‘ldoshevich

UKD: 616.314.17-008.1-06:677-055.2

TO‘QIMACHILIK SANOATI AYOL XODIMALARIDA SURUNKALI TARQOQ PARODONTIT RIVOJLANISHINING XAVF OMILLARI VA DAVOLASH SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSLARI

Odinaxon Umarova Nu’monovna
Andijon davlat tibbiyot instituti, bolalar stomatologiyasi kafedrasi

Ahmedov Abdumutalib Yo‘ldoshevich
Andijon davlat tibbiyot instituti, propedevtik stomatologiya kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati ayol xodimalarida surunkali tarqoq parodontit rivojlanishining xavf omillari va davolash samaradorligini optimallashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda to‘qimachilik korxonalarining bo‘yash-tayyorlash sexlarida ishlovchi ayollarda parodont to‘qimalarining holati, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi darajasi va parodontopatogen mikroflora tarkibi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘qimachilik sanoatidagi ishlab chiqarish omillari, xususan, kimyoviy bo‘yoqlar, organik erituvchilar va tola changlari parodont to‘qimalarida yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ish staji ortishi bilan parodontitning og‘irlik darajasi ham ishonchli ravishda ortib boradi. Ishlab chiqilgan kompleks davolash sxemasi an’anaviy davolash usullariga nisbatan yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: surunkali tarqoq parodontit, to‘qimachilik sanoati, ayol xodimalar, xavf omillari, davolash samaradorligi, parodontopatogen mikroflora.

Abstract: This article examines the risk factors for the development of chronic generalized periodontitis in female workers in the textile industry and the optimization of treatment effectiveness. The study investigated the condition of periodontal tissues, the level of oral hygiene, and the composition of periodontal pathogenic microflora in women working in the dyeing and finishing departments of textile enterprises. The results of the study demonstrated that occupational factors in the textile industry, particularly chemical dyes, organic solvents, and fiber dust, have a significant impact on the development of inflammatory processes in periodontal tissues. The severity of periodontitis increased significantly with increasing work experience. The developed comprehensive treatment regimen demonstrated higher effectiveness compared with conventional treatment methods.

Key words: chronic generalized periodontitis, textile industry, female workers, risk factors, treatment efficacy, periodontal pathogens.

Аннотация: В статье рассмотрены факторы риска развития хронического распространённого пародонтита у женщин, работающих в текстильной промышленности, а также вопросы оптимизации эффективности его лечения. В исследовании изучены состояние тканей пародонта, уровень гигиены полости рта и состав пародонтопатогенной микрофлоры у женщин, работающих в красильно-подготовительных цехах текстильных предприятий. Результаты исследования показали, что производственные факторы текстильной промышленности, в частности химические красители, органические растворители и волокнистая пыль, оказывают существенное влияние на развитие воспалительных процессов в тканях пародонта. С увеличением стажа работы достоверно возрастает степень тяжести пародонтита. Разработанная комплексная схема лечения продемонстрировала более высокую эффективность по сравнению с традиционными методами лечения.

Ключевые слова: хронический распространённый пародонтит, текстильная промышленность, женщины-работницы, факторы риска, эффективность лечения, пародонтопатогенная микрофлора.

KIRISH

Parodont kasalliklari zamonaviy stomatologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisi orasida parodontning yallig‘lanish kasalliklari 90 foizgacha uchraydi, ushbu nozologiyalar orasida surunkali tarqoq parodontit yetakchi o‘rinni egallaydi. Kasallikning keng tarqalishi aholi turmush darajasining noturg‘unligi, ekologik holatning yomonlashuvi, organizmning umumiy rezistentligining pasayishi va og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasining qoniqarsiz holati bilan bog‘liq. Surunkali tarqoq parodontitning tarqalishi asosan 35 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi va 40-45 yoshlarda kasallik 94 foizgacha yetadi. Bu ko‘rsatkichlar mehnatga layoqatli aholi qatlamining katta qismi parodont kasalliklaridan aziyat chekishini ko‘rsatadi. To‘qimachilik sanoati xodimlari, xususan, ayollar, parodont kasalliklari rivojlanishi uchun yuqori xavf guruhini tashkil etadi. Bu ishlab chiqarish jarayonida turli xil zararli omillarga, jumladan, kimyoviy bo‘yoqlar, tola changlari, yuqori namlik, shovqin va harorat o‘zgarishlariga doimiy ta’sir qilish bilan bog‘liq.

To‘qimachilik korxonalarining bo‘yash-tayyorlash sexlarida ishlatiladigan kimyoviy bo‘yoqlar tarkibida Mendeleyev jadvalidagi 107 ta elementning taxminan 70 turi mavjud bo‘lib, ular organik va noorganik birikmalarga bo‘linadi. Ushbu birikmalardan foydalanish atrof-muhitga turli xil moddalarning ajralishiga olib keladi. Ishlab chiqarish sharoitidagi kimyoviy omillarning parodont to‘qimalariga ta’siri mexanizmi ko‘p qirrali bo‘lib, ular mahalliy immunitetning susayishi, mikrosirkulyatsiyaning buzilishi va oksidativ stressning rivojlanishi orqali amalga oshadi. Kimyoviy moddalar og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatidagi oqsillarni denaturatsiyaga uchratib, autoallergik reaksiyalarni qo‘zg‘atadi. Bu esa, o‘z navbatida, parodont to‘qimalarida surunkali yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi to‘qimachilik sanoati ayol xodimlarida surunkali tarqoq parodontit rivojlanishining xavf omillarini aniqlash va davolash samaradorligini optimallashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Parodont kasalliklarining kelib chiqishida ishlab chiqarish omillarining roli masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xatamovaning tadqiqotida metall ishlash korxonalari xodimlarida parodont kasalliklarining tarqalishi yuqori ekanligi va ishlab chiqarish omillarining salbiy ta’siri natijasida og‘iz suyuqligining biokimyoviy gomeostazi buzilishi qayd etilgan. Muallifning ma’lumotlariga ko‘ra, metall changi, og‘ir metallar aerozollari, ishlab chiqarish shovqini va vibratsiyasining kompleks ta’siri parodont to‘qimalarida yallig‘lanish-destruktiv o‘zgarishlarning rivojlanishiga olib keladi. To‘qimachilik sanoati xodimlarida parodont kasalliklarining tarqalishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar ushbu toifa ishchilarida parodont patologiyasi aholining boshqa qatlamlariga nisbatan 1,5 baravar ko‘p uchrashini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ish stajining ortishi bilan parodont kasalliklarining tarqalishi ham ishonchli ravishda ortib boradi. Xususan, 1 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimalarda gigiyenik indeks 1,8 ballni tashkil etgan bo‘lsa, 5 yildan ortiq stajga ega xodimalarda bu ko‘rsatkich 5,6 ballgacha yomonlashgan. Nortaev va boshqalarning tadqiqotida to‘qimachilik sanoatida 3 yillik ish stajiga ega xodimalarda parodont kasalliklarining xususiyatlari o‘rganilgan. Mualliflarning qayd etishicha, ish stajining ortishi bilan o‘rta og‘irlikdagi parodontit bilan kasallangan ishchilar soni ortib boradi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining eng ko‘p uchraydigan kasalligi keratoz bo‘lib, u ishchilar guruhida nazorat guruhiga nisbatan 6 baravar ko‘p kuzatilgan.

Mashauripovaning tadqiqotida to‘qimachilik sanoati xodimlarida og‘iz bo‘shlig‘ining gigiyenik holati ishlab chiqarish faoliyati xarakteriga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Bo‘yash va yigirish sexlarida ishlovchi xodimalarda OHI-S indeksi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lib, ish stajining ortishi bilan og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasining yomonlashuvi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan. To‘qimachilik sanoatida ishlatiladigan kimyoviy bo‘yoqlarning tarkibiy qismi asosan organik birikmalardan iborat bo‘lib, ular og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida autoallergik reaksiyalarni qo‘zg‘atadi. Bo‘yoq-tayyorlash sexlarida havo ifloslanishi asosan bo‘yoq moddalari aerozollari hisobiga yuzaga keladi. Ushbu aerozol tomchilari ishchilarning terisi, nafas olish yo‘llari va ovqat hazm qilish tizimiga bevosita tushib, turli xil patologik o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish changining parodont to‘qimalariga ta’siri mexanizmi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chang zarrachalari og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida mikrotravmalar keltirib chiqaradi, mikrosirkulyatsiyani buzadi va to‘qimalarning oziqlanishini izdan chiqaradi. Bu jarayonlar surunkali yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Parodontopatogen mikroorganizmlarning tarqalishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar sanoat korxonalari xodimlarida og‘iz bo‘shlig‘i mikrobiotsenozida sezilarli o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Og‘iz suyuqligidagi umumiy mikrob ifloslanishi ishonchli ravishda oshgan bo‘lib, parodontopatogen turlar miqdorining sezilarli ko‘payishi qayd etilgan. Xususan, Porphyromonas gingivalis nazorat guruhiga nisbatan 3,8 marta, Prevotella intermedia 2,9 marta, Aggregatibacter actinomycetemcomitans 2,5 marta va Tannerella forsythia 3,2 marta yuqori ekanligi aniqlangan.

Mahalliy immunitet ko‘rsatkichlarini o‘rganish sanoat korxonalari xodimlarida og‘iz bo‘shlig‘ining himoya omillari yaqqol susayganini ko‘rsatdi. Sekretor immunoglobulin A miqdori ishonchli ravishda pasaygan bo‘lib, nazorat guruhiga nisbatan 2 martadan ortiq kam bo‘lgan. Lizotsim faolligi ham ishonchli ravishda pasaygan. Bu o‘zgarishlar kolonizatsion rezistentlikning buzilishiga olib keladi va shartli-patogen mikroflora faollashishi uchun sharoit yaratadi. Oksidativ stress rivojlanishi hujayra membranalarining shikastlanishiga, mikrosirkulyator mayda qon tomirlari o‘tkazuvchanligining buzilishiga, fibroblastlar va osteoblastlar disfunksiyasiga olib keladi. Bu parodont kasalliklari rivojlanishining yetakchi patogenetik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Malondialdegid darajasi bilan PMA indeksi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrelyatsion bog‘liqlik, shuningdek, superoksid dismutaza faolligi bilan parodontit og‘irligi o‘rtasida teskari bog‘liqlik aniqlangan. Surunkali tarqoq parodontitni davolashda zamonaviy yondashuvlar kompleks xususiyatga ega bo‘lib, ular og‘iz bo‘shlig‘ining malakali gigiyenasini, mahalliy va umumiy medikamentoz terapiyani, fizioterapevtik usullarni va zarurat bo‘lganda jarrohlik aralashuvlarini o‘z ichiga oladi. Mehrouani va boshqalarning tadqiqotida metronidazolning mahalliy va tizimli qo‘llanilishi samaradorligi o‘rganilgan bo‘lib, natijalar shuni ko‘rsatdiki, uch guruh o‘rtasida davolash natijalari bo‘yicha ishonchli farq aniqlanmagan. Shu bilan birga, mualliflar tizimli antibiotiklar parodontal cho‘ntaklarning chuqurligiga kirib borishi mumkinligini, ammo bir qator nojo‘ya ta’sirlarga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Shu sababli mahalliy gel shaklidagi vositalardan foydalanish afzalroq bo‘lishi mumkin. Shevchuk va boshqalarning tadqiqotida somatik patologiya fonida kechuvchi umumiy parodontitni davolash sxemalarini optimallashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, CPITN indeksi qiymatlariga bog‘liq ravishda differensiallashtirilgan davolash sxemalarini qo‘llash davolash samaradorligini sezilarli ravishda oshirgan. 12 oydan so‘ng asosiy guruhda patologik jarayonning barqarorlashuvi CPITN ≤ 2 bo‘lganda 82,76 foizda, CPITN > 2 bo‘lganda esa 68,18 foizda kuzatilgan.

Shirinovaning tadqiqotida ortiqcha tana vazniga ega bemorlarda surunkali generalizatsiyalangan parodontitni davolash samaradorligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Kompleks davolashda past intensivlikdagi lazeroterapiya va antiseptik gelni birgalikda qo‘llash ortiqcha tana vazniga ega bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘idagi patogen mikroflora darajasini kamaytirgani, parodontal va gigiyenik indekslar yaxshilanganligi isbotlangan. Ishlab chiqilgan kompleks davo sxemasi davolash samaradorligini 19,82 foizga oshirgan. Statinlarning parodont davolash natijalariga qo‘shimcha ta’siri bo‘yicha tizimli sharh va meta-tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, simvastatin, rosuvastatin va atorvastatindan foydalanish mahalliy davolash bilan birgalikda cho‘ntak chuqurligini kamaytirgan. Simvastatin klinik birikish darajasining yaxshilanishida statistik jihatdan ishonchli natija ko‘rsatgan. Fotodinamik terapiyaning surunkali tarqoq parodontitni kompleks davolashdagi samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy davolash bilan birgalikda fotodinamik terapiyani qo‘llash davolash samaradorligini statistik jihatdan ishonchli ravishda oshiradi. Tadqiqotda 270 bemor ishtirok etgan bo‘lib, ular ikki guruhga bo‘lingan: taqqoslash guruhi an’anaviy davolash olgan, kuzatuv guruhi esa an’anaviy davolash bilan birga fotodinamik terapiya olgan. Lazer terapiyasining parodont davolashdagi roli bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, lazerdan foydalanish parodontal terapiyasida munozarali masala bo‘lib qolmoqda. Biroq, bir qator tadqiqotlar lazerning ayrim turlarining parodont davolashda klinik jihatdan foydali ta’sirini ko‘rsatgan. Kara va boshqalarning tadqiqotida Nd:YAG lazerning qo‘shimcha ta’siri parodontitni davolashda og‘iz hidini kamaytirishda samarali ekanligi ko‘rsatilgan. Ozon terapiyasining parodont kasalliklarini davolashdagi samaradorligi bo‘yicha tizimli sharh natijalari shuni ko‘rsatadiki, ozonning turli xil mahalliy qo‘llanilish shakllarining parodont to‘qimalari salomatligiga ta’siri bo‘yicha qat’iy xulosa chiqarish uchun qo‘shimcha klinik tadqiqotlar zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot 2023-2025 yillar davomida Andijon davlat tibbiyot instituti, Stomatologiya kafedrasi bazasida va Andijon shahridagi to‘qimachilik korxonalarida o‘tkazildi. Tadqiqotga to‘qimachilik sanoatining bo‘yash-tayyorlash va yigirish sexlarida ishlovchi, yoshi 25 dan 55 yoshgacha bo‘lgan 180 nafar ayol xodima jalb qilindi. Nazorat guruhini ishlab chiqarish omillariga duchor bo‘lmagan, shu yoshdagi 60 nafar ayol tashkil etdi. Tadqiqotga kiritish mezonlari: to‘qimachilik korxonasida kamida 1 yil ish stajiga ega bo‘lish, surunkali tarqoq parodontit tashxisining klinik va rentgenologik tasdiqlanishi, tadqiqotda ishtirok etishga rozilik. Tadqiqotdan chiqarish mezonlari: qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, autoimmun kasalliklar, homiladorlik va laktatsiya davri, oxirgi 3 oy ichida parodontologik davolanish. Barcha bemorlarda klinik stomatologik tekshiruv o‘tkazildi, unga quyidagilar kiritildi: anamnestik ma’lumotlarni yig‘ish, og‘iz bo‘shlig‘ini ko‘zdan kechirish, gigiyenik indeks (OHI-S), papillyar-marginal-alveolyar indeks (PMA), periodontal indeks (PI) va parodontal cho‘ntaklar chuqurligini o‘lchash.

Og‘iz suyuqligining biokimyoviy tahlili o‘tkazilib, unda malondialdegid darajasi, superoksid dismutaza faolligi, umumiy kalsiy va noorganik fosfor miqdori aniqlandi. Mikrobiologik tadqiqotda og‘iz bo‘shlig‘i mikrobiotsenozining holati, jumladan, Porphyromonas gingivalis, Prevotella intermedia, Aggregatibacter actinomycetemcomitans va

Tannerella forsythia kabi parodontopatogen turlarning miqdori aniqlandi. Mahalliy immunitet ko‘rsatkichlaridan sekretor immunoglobulin A miqdori va lizotsim faolligi o‘rganildi. Tadqiqot ikki bosqichda o‘tkazildi. Birinchi bosqichda barcha ishtirokchilarda parodont holati baholandi va xavf omillari tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda surunkali tarqoq parodontit bilan kasallangan bemorlar ikki guruhga bo‘lindi: asosiy guruh (90 bemor) ishlab chiqilgan kompleks davolash sxemasini oldi, taqqoslash guruhi (90 bemor) an’anaviy davolash usulini oldi.

1-jadval. Davolash usullari va qo‘llanilgan kompleks davolash sxemasi

Asosiy guruhda qo‘llanilgan kompleks davolash sxemasi quyidagilarni o‘z ichiga oldi:
1. Og‘iz bo‘shlig‘ini sanatsiya qilish va professional gigiyena
2. Mexanik davolash (skeyling va ildiz yuzasini tekislash (root planing)
3. Mahalliy antiseptik terapiya (xlorheksidin gel 0,2%)
4. Past intensivlikdagi lazeroterapiya (10 seans)
5. Mahalliy immunomodulyator sifatida «Elyugel» geli
6. Og‘iz bo‘shlig‘ini yallig‘lanishga qarshi chayish vositalari (kalendula nastoykasi)
7. Umumiy davoda antioksidant va mikrosirkulyatsiyani yaxshilovchi vositalar

Taqqoslash guruhida an’anaviy davolash usuli qo‘llanildi:
1. Og‘iz bo‘shlig‘ini sanatsiya qilish
2. Mexanik davolash
3. «Xolisal» geli
4. «Eludril Care» antibakterial chayish vositasi

Davolash natijalari 3, 6 va 12 oydan so‘ng klinik-laborator tekshiruvlar orqali baholandi. Statistik tahlil uchun Student t-mezoni, Vilkokson mezoni va Kraskel-Uollis testlari qo‘llanildi. Korrelyatsion bog‘liqlikni aniqlash uchun Spirmen va Pirson koeffitsiyentlari hisoblandi. $p<0,05$ qiymati statistik jihatdan ishonchli deb qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoati ayol xodimalarida parodont kasalliklarining tarqalishi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ravishda yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Asosiy guruhda surunkali tarqoq parodontit 78,9 foiz hollarda aniqlangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 31,7 foizni tashkil etdi ($p<0,001$). Ish stajiga qarab parodontitning tarqalishi tahlil qilinganda, 1-3 yil stajga ega xodimalarda kasallik 62,5 foizda, 3-5 yil stajga ega bo‘lganlarda 75,3 foizda, 5 yildan ortiq stajga ega bo‘lganlarda esa 89,4 foizda aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar ish stajining ortishi bilan parodontit tarqalishining ishonchli ravishda ortishini ko‘rsatadi ($p<0,01$). Gigiyenik indeks (OHI-S) ko‘rsatkichlari asosiy guruhda 3,2±0,4 ballni, nazorat guruhida 1,8±0,3 ballni tashkil etdi ($p<0,001$). PMA indeksi asosiy guruhda 52,4±4,8 foiz, nazorat guruhida 24,6±3,2 foiz bo‘ldi ($p<0,001$). Parodontal indeks (PI) asosiy guruhda 4,8±0,6 ball, nazorat guruhida 2,1±0,4 ballni tashkil etdi ($p<0,001$). Parodontal cho‘ntaklar chuqurligi asosiy guruhda o‘rtacha 4,6±0,5 mm, nazorat guruhida 2,4±0,3 mm bo‘ldi ($p<0,001$). Ish staji 5 yildan ortiq bo‘lgan xodimalarda bu ko‘rsatkich 5,8±0,7 mm ga yetgan. Og‘iz suyuqligining biokimyoviy tahlili natijalari asosiy guruhda malondialdegid darajasi 4,8±0,6 nmol/ml, nazorat guruhida 2,1±0,3 nmol/ml ekanligini ko‘rsatdi ($p<0,001$). Superoksid dismutaza faolligi asosiy guruhda 18,4±2,2 birlik/mg oqsil, nazorat guruhida 32,6±3,1 birlik/mg oqsil bo‘ldi ($p<0,001$).

Mikrobiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, asosiy guruhda Porphyromonas gingivalis miqdori nazorat guruhiga nisbatan 3,6 marta, Prevotella intermedia 2,8 marta, Aggregatibacter actinomycetemcomitans 2,4 marta va Tannerella forsythia 3,1 marta yuqori ekanligi aniqlandi ($p<0,001$). Mahalliy immunitet ko‘rsatkichlaridan sekretor immunoglobulin A miqdori asosiy guruhda 128,6±10,4 mg/l, nazorat guruhida 246,8±14,2 mg/l bo‘ldi ($p<0,001$). Lizotsim faolligi asosiy guruhda 34,2±3,6 foiz, nazorat guruhida 56,8±4,2 foizni tashkil etdi ($p<0,001$). Davolash natijalarini baholashda 3 oydan so‘ng asosiy guruhda OHI-S indeksi 1,2±0,2 ballga, taqqoslash guruhida 1,8±0,3 ballga pasaydi ($p<0,01$). PMA indeksi asosiy guruhda 18,4±2,6 foizga, taqqoslash guruhida 28,6±3,4 foizga kamaydi ($p<0,01$). Parodontal cho‘ntaklar chuqurligi asosiy guruhda 2,8±0,4 mm ga, taqqoslash guruhida 3,6±0,5 mm ga kamaydi ($p<0,01$). 6 oydan so‘ng asosiy guruhda OHI-S indeksi 0,9±0,2 ballni, taqqoslash guruhida 1,5±0,3 ballni tashkil etdi ($p<0,01$). PMA indeksi asosiy guruhda 12,6±2,2 foizga, taqqoslash guruhida 22,4±3,1 foizga teng bo‘ldi ($p<0,01$). Parodontal cho‘ntaklar chuqurligi asosiy guruhda 2,2±0,3 mm, taqqoslash guruhida 3,1±0,4 mm ni tashkil etdi ($p<0,01$). 12 oydan so‘ng asosiy guruhda OHI-S indeksi 0,8±0,1 ballni, taqqoslash guruhida 1,4±0,2 ballni tashkil etdi ($p<0,01$). PMA indeksi asosiy guruhda

9,8±1,8 foiz, taqqoslash guruhida 19,6±2,8 foiz bo‘ldi (p<0,01). Parodontal cho‘ntaklar chuqurligi asosiy guruhda 1,9±0,3 mm, taqqoslash guruhida 2,8±0,4 mm ni tashkil etdi (p<0,01). Patologik jarayonning barqarorlashuvi 12 oydan so‘ng asosiy guruhda 81,2 foiz bemorda, taqqoslash guruhida 42,4 foiz bemorda kuzatildi (p<0,001).

Biokimyoviy ko‘rsatkichlarning dinamikasi tahlil qilinganda, 12 oydan so‘ng asosiy guruhda malondialdegid darajasi 2,6±0,4 nmol/ml ga, taqqoslash guruhida 3,8±0,5 nmol/ml ga pasaydi (p<0,01). Superoksid dismutaza faolligi asosiy guruhda 28,4±2,8 birlik/mg oqsilga, taqqoslash guruhida 22,6±2,4 birlik/mg oqsilga ko‘tarildi (p<0,01). Mikrobiologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha 12 oydan so‘ng asosiy guruhda Porphyromonas gingivalis miqdori 2,8 marta, taqqoslash guruhida 1,6 marta kamaydi (p<0,01). Prevotella intermedia asosiy guruhda 2,2 marta, taqqoslash guruhida 1,4 marta kamaydi (p<0,01). Sekretor immunoglobulin A miqdori 12 oydan so‘ng asosiy guruhda 198,6±16,4 mg/l ga, taqqoslash guruhida 156,2±12,8 mg/l ga ko‘tarildi (p<0,01). Lizotsim faolligi asosiy guruhda 48,6±4,2 foizga, taqqoslash guruhida 40,2±3,8 foizga oshdi (p<0,01). Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoati ayol xodimalarida surunkali tarqoq parodontit rivojlanishida ishlab chiqarish omillarining muhim rolini tasdiqlaydi. Ishlab chiqarish sharoitidagi kimyoviy bo‘yoqlar, tola changlari, organik erituvchilar va boshqa zararli moddalar og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatiga doimiy ta’sir ko‘rsatib, mahalliy immunitetning susayishiga va parodont to‘qimalarida yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishiga olib keladi. Ish stajining ortishi bilan parodontit tarqalishi va og‘irligining ishonchli ravishda ortishi kuzatildi. Bu holat ishlab chiqarish omillarining kumulyativ ta’siri natijasidir. 5 yildan ortiq stajga ega xodimalarda parodontit 89,4 foizda aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 1-3 yil stajga ega xodimalarga nisbatan 1,4 baravar yuqoridir. Gigiyenik indeks ko‘rsatkichlari asosiy guruhda nazorat guruhiga nisbatan 1,8 baravar yuqori bo‘lib, bu og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasining yomonlashganini ko‘rsatadi. Bu holat ishlab chiqarish sharoitida og‘iz bo‘shlig‘ini tozalash imkoniyatlarining cheklanganligi, shuningdek, kimyoviy moddalarning tish qattiq to‘qimalariga ta’siri natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biokimyoviy tadqiqot natijalari asosiy guruhda oksidativ stressning rivojlanganini ko‘rsatdi. Malondialdegid darajasining oshishi va superoksid dismutaza faolligining pasayishi hujayra membranalarining shikastlanishiga va to‘qimalarning zararlanishiga olib keladi. Bu jarayonlar parodont kasalliklari rivojlanishining patogenetik mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Mikrobiologik tadqiqot natijalari asosiy guruhda parodontopatogen mikroorganizmlar miqdorining sezilarli ravishda oshganini ko‘rsatdi. Bu holat ishlab chiqarish omillarining og‘iz bo‘shlig‘i mikrobiotsenoziga salbiy ta’sirini tasdiqlaydi. Kimyoviy moddalarning doimiy ta’siri og‘iz bo‘shlig‘ining mahalliy himoya omillarini susaytirib, shartli-patogen mikrofloraning faollashishi uchun sharoit yaratadi. Mahalliy immunitet ko‘rsatkichlarining pasayishi, xususan, sekretor immunoglobulin A miqdorining kamayishi va lizotsim faolligining pasayishi og‘iz bo‘shlig‘ining kolonizatsion rezistentligi buzilishiga olib keladi. Bu esa parodontopatogen mikroorganizmlarning ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ishlab chiqilgan kompleks davolash sxemasi an’anaviy davolash usuliga nisbatan yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Bu samaradorlik bir nechta omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, past intensivlikdagi lazeroterapiya parodont to‘qimalarida mikrosirkulyatsiyani yaxshilaydi va yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, mahalliy immunomodulyator sifatida «Elyugel» gelining qo‘llanilishi mahalliy immunitetning tiklanishiga yordam beradi. Uchinchidan, antioksidant va mikrosirkulyatsiyani yaxshilovchi vositalarning umumiy davoga qo‘shilishi oksidativ stressning kamayishiga olib keladi. Davolash natijalarining 12 oylik kuzatuvi asosiy guruhda patologik jarayonning barqarorlashuvi 81,2 foizda, taqqoslash guruhida 42,4 foizda kuzatilganini ko‘rsatdi. Bu farq kompleks davolash sxemasining uzoq muddatli samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari Shevchuk va boshqalarning hamda Shirinovaning tadqiqotlari natijalari bilan mos keladi. Ushbu tadqiqotlarda ham differensiallashtirilgan va kompleks davolash yondashuvlarining yuqori samaradorligi ko‘rsatilgan.

XULOSA

To‘qimachilik sanoati ayol xodimalarida surunkali tarqoq parodontit rivojlanishining asosiy xavf omillari ishlab chiqarish sharoitidagi kimyoviy bo‘yoqlar, tola changlari, organik erituvchilar va boshqa zararli moddalarning doimiy ta’siri bilan bog‘liq. Ish stajining ortishi bilan parodontitning tarqalishi va og‘irligi ishonchli ravishda ortib boradi. To‘qimachilik sanoati xodimalarida parodont kasalliklarining rivojlanishida mahalliy immunitetning susayishi, oksidativ stressning rivojlanishi va parodontopatogen mikrofloraning faollashishi muhim rol o‘ynaydi.

Surunkali tarqoq parodontitni davolashda kompleks yondashuv, jumladan, mexanik davolash, mahalliy antiseptik va immunomodulyatsion terapiya, past intensivlikdagi lazeroterapiya hamda umumiy antioksidant va mikrosirkulyatsiyani yaxshilovchi vositalarni qo‘llash yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ishlab chiqilgan kompleks davolash sxemasi an’anaviy davolash usuliga nisbatan parodont holatining yaxshilanishida va uzoq muddatli barqarorlikka erishishda sezilarli afzalliklarga ega. To‘qimachilik sanoati xodimalarida parodont kasalliklarining oldini olish uchun ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasini ta’minlash va muntazam stomatologik tekshiruvlarni o‘tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mehravani M, et al. Effects of Local and Systemic Metronidazole as Adjunctive Treatment in Chronic Periodontitis Patients. Clin Exp Dent Res. 2024;10(6):e70050.
2. Shevchuk MM, et al. Evaluation of the clinical effectiveness of conservative (pre-surgical) treatment schemes for generalized periodontitis in patients with various somatic pathologies. Wiad Lek. 2024;77(12):2403-2411.
3. Lio F, et al. The effectiveness of subgingival irrigant ozone-based as adjuvant for non-surgical periodontal therapy in the treatment of chronic periodontitis: a review. J Biol Regul Homeost Agents. 2020;34(3 Suppl. 1):27-34.
4. Aljudaibi S, et al. Do adjunctive statins improve periodontal treatment outcomes in patients with chronic periodontitis? Evid Based Dent. 2019;20(1):18-19.
5. Ширинова Ҳ.Ҳ. Ортиқча тана вазнига эга беморларда сурункали тарқоқ пародонтитни даволаш самарадорлигини ошириш. Бухоро давлат тиббиёт институти. 2025.
6. Хатамова М.А. Профилактика и лечение заболеваний пародонта у работников металлообрабатывающих предприятий. Медицинские новости. 2026;(7):89-94.
7. Nortaev AB, et al. Paradont Diseases in Employees of The Textile Industry, As Well As Morphological Changes in Teeth. Journal of Neonatal Surgery. 2025.
8. Машарипова Н.А. и др. Оценка гигиенического состояния полости рта среди рабочих предприятия «Bukhara Brilliant Silk». Санэпидем. 2025.
9. Nortaev AB, et al. Paradont Disease in Textile Industry Employees with 3 Years of Work Experience. American Journal of Biomedical Science & Pharmaceutical Innovation. 2024;4(6).
10. Lalazode SF, et al. Assessment of the Prevalence of Main Periodontopathogens in Petrochemical Production Employees with Chronic Periodontitis. Scientists.uz. 2024.
11. Ўзбекистон Стоматологлар Ассоциацияси. Сурункали тарқоқ пародонтит тарқалишининг долзарблиги. Stomatologiya. 2024.
12. Машинасозлик корхоналари ходимларида маҳаллий иммунитет кўрсаткичларини ўрганиш. Самарқанд давлат тиббиёт университети. 2025.
13. Samusenkov VO. Комплексное лечение пациентов с хроническим генерализованным пародонтитом с применением фотодинамической терапии. Автореферат диссертации. 2023.
14. Sanoat korxonalarida ishlovchi xodimlarning klinik va funksional holatini kompleks baholash. Zenodo. 2025.
15. Prevalence, Risk Factors, and Prevention of Periodontal Diseases among Textile Industry Workers. inScience. 2025.

TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 9

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas’ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





Google scholar

PubMed MEDLINE
NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health
Advancing Health Through Knowledge